“Mineral o‘g‘it - mo‘l hosil garovi” mavzusida amaliy seminar o‘tkazildi

// 21.02.2025
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/mineral-o-g-it-mo-l-hosil-garovi-mavzusida-amaliy-seminar-o-

“O‘zkimyosanoat” AJ, Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bilan birgalikda har oyda kamida bir marta hududlarda “O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan mineral o‘g‘itlarning sifati va xususiyatlari yuzasidan dehqon, fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari ishtirokida tahlillar o‘tkazish, ularning fikrlarini o‘rganish hamda maqbul takliflarni amaliyotga tatbiq etish tizimini yo‘lga qo‘yishishlari amalga oshirilmoqda.

“O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan fermerlar va dehqon xo‘jaliklari vakillari ishtirokida Qashqadaryo viloyatida “Mineral o‘g‘it - mo‘l hosil garovi” mavzusida amaliy seminar o‘tkazildi.

Tadbirga viloyat va tuman hokimlarining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari, qishloq xo‘jaligi boshqarmalari rahbarlari, fermer xo‘jaliklari rahbarlari hamda “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari vakillari taklif etildi.

Seminar ishtirokchilariga “O‘zkimyosanoat” AJ tizim korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mineral o‘g‘itlarning sifati va xususiyatlari, mineral o‘g‘itlarni birjada chegirma narxlarda sotish mexanizmi, hududlarda faoliyat olib borayotgan korxonalarning ijara (vakolatli) omborlari xususida batafsil ma’lumotlar berib o‘tildi.

Shuningdek, birjada alohida “forvard” kontraktlarda oldindan 30 foiz to‘lov, qolgan 70 foiz qismiga faktoring xizmatidan foydalangan holda xarid qilish mexanizmlari yuzasidan taqdimotlar o‘tkazildi.

Amaliy muloqot tarzida o‘tgan tadbirda mutasaddilar fermerlarni qiziqtirgan savollariga atroflicha javob berdilar.

“Sharqros universal servis” MCHJ vakolatli omborida esa seminarning asosiy qismi hisoblangan mineral o‘g‘itlar ko‘rgazmasi ham tashkil etildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati